

"Besh muhim tashabbus" doirasidagi forum

Yoshlar ishlari agentligi va "Qizlar ovozi" jamiyati tomonidan tashkillashtirilgan "Besh muhim tashabbus" forumi bo'lib o'tdi. Ushbu forum doirasida birinchi kunda "Modul 5" loyihasi taqdimoti yuqori motivatsion ruhda bo'ldi. Birinchi kun davomida "Anor" brendi taqdimoti va yulduzlar ishtirokida gala konsent ham bo'lib o'tdi.



Ikkinchi kunda esa 5ta muhim tashabbusning uchinchi yo'nalishi bo'yicha "Bir million dasturchi" loyihasi taqdimoti bo'ldi va albatta yurtimizdagi qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ham so'z bordi. Kunning ikkinchi yarmi sport chiqishlari bilan yakunlandi. Forumda faol ishtirok etgan QXM, GM fakulteti talabalari forumdan foydali ma'lumotlar olib, ko'tarinki ruhda qaytishdi.



QXM fakulteti yoshlar yetakchisi Ruxshona Yigitalieva axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati